

SURXONDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2022- yil 1- iyun holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)




Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022-yil 1-iyun holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Mamlakatimizda qulay ishbilamonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- iyun holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)






Mas'uliyati cheklangan jamiyat birlik



Xususiy korxonona birlik




Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- iyun holatiga ko'ra)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)





Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; - aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.


Yangi tashkil etilgan korxonona va tashkilotlar soni

(yanvar- may oylarida, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar- may oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi


(2022- yil yanvar- may oylarida, umumiy sonidagi ulushi, foizda)



2022- yil yanvar- may oylarida 2 129 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 1 301 ta, oilaviy korxonalar - 479 ta, xususiy korxonalar - 227 ta, muassasalar - 77 ta va boshqalar - 45 tani tashkil etdi.

Oilaviy korxonalar soni

(1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yil 1- iyun holatiga ko'ra 6 197 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 561 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 5 599 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 452 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yil yanvar- may oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 479 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 310 taga yoki 0,6 martaga kamayganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yil 1- iyun holatiga ko'ra, 13 208 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 241 taga yoki 20,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 12 484 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 965 taga yoki 18,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yil yanvar- may oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 301 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 166 taga yoki 0,9 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yil 1- iyun holatiga ko'ra, 609 tani tashkil etib, ulardan 585 tasi yoki 96,1 % faoliyat ko'rsatmoqda.


Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 204 taga yoki 20,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yil yanvar- may oylarida viloyatimizda 37 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)






Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni


(1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil	2022- yil
Jami	5 125	6 714	8 329	10 519	12 484
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	527	693	997	1 506	1 843
Sanoat	808	1 109	1 297	1 632	1 839
Qurilish	848	1 087	1 460	1 692	1 935
Savdo	1 526	2 070	2 583	3 341	4 110
Tashish va saqlash	504	558	610	633	653
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	190	261	330	388	476
Axborot va aloqa	72	92	105	128	153
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	56	80	95	135	177
Boshqa turlar	594	764	852	1 064	1 298

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2022- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

12



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil	2022- yil
Jami	89	262	385	480	585
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	20	74	96	110	123
Sanoat	37	70	103	126	133
Qurilish	4	14	21	36	38
Savdo	16	66	116	152	220
Tashish va saqlash	4	7	6	7	10
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1	12	19	21	24
Axborot va aloqa	1	1	2	1	2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	3	4	7	8
Boshqa turlar	5	15	18	20	27

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022-yil 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2022-yil 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Surxondaryo viloyati	585	149	436
Termiz sh.	335	36	299
tumanlar:			
Oltinsoy	6	5	1
Angor	21	6	15
Bandixon	3	1	2
Boysun	9	6	3
Muzrabot	16	7	9
Denov	21	11	10
Jarqo'rg'on	15	9	6
Qumqo'rg'on	13	7	6
Qiziriq	10	1	9
Sariosiyo	20	11	9
Termiz	47	16	31
Uzun	41	19	22
Sherobod	13	7	6
Sho'rchi	15	7	8

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




2022- yil 1- iyun holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz shahri (17,9 %), Denov (11,8 %), Jarqo'rg'on (8,1 %), Sho'rchi (6,9 %), Qumqo'rg'on (6,7 %), Sherobod (6,5 %), Termiz (6,5 %), Sariosiyo (5,3 %), Uzun (5,2 %), Boysun (4,8 %), Qiziriq (4,8 %), Angor (4,8 %), Muzrabot (4,7 %), Oltinsoy (3,9 %) va Bandixon (2,1 %) tumanlarida hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2022- yil yanvar- may oylarida, birlikda)

2022- yil yanvar- may oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Termiz sh. (15,6 %), Denov (11,6 %), Jarqo'rg'on (8,0 %), Boysun (7,1 %), Sherobod (7,0 %), Qumqo'rg'on (6,5 %), Sho'rchi (5,9 %), Angor (5,7 %), Sariosiyo (5,3 %), Muzrabot (5,1 %), Uzun (4,7 %), Bandixon (4,7 %), Qiziriq (4,5 %), Termiz (4,4 %) va Oltinsoy (3,9 %) ulushiga ega.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni

(2022- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2022- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



2022- yil 1- iyun holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz sh. (25,8 %), Denov (9,8 %), Termiz (8,7 %), Jarqo'rg'on (7,4 %), Sherobod (6,3 %), Qumqo'rg'on (5,5 %), Sho'rchi (5,4 %), Boysun (5,1 %), Qiziriq (4,8 %), Angor (4,6 %), Muzrabot (4,4 %), Sariosiyo (4,2 %), Uzun (3,5 %), Oltinsoy (2,3 %) va Bandixon (2,2 %) ulushiga ega.

Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi


(2022- yil 1- iyun holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni


(2022- yil yanvar- may oylarida, birlikda)




2022- yil yanvar- may oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Boysun (14,4 %), Denov (11,9 %), Oltinsoy (8,8 %), Termiz sh. (7,7 %), Qiziriq (7,1 %), Sherobod (6,3 %), Angor (5,8 %), Jarqo'rg'on (5,8 %), Bandixon (5,8 %), Sariosiyo (4,8 %), Muzrabot (4,8 %), Sho'rchi (4,8 %) Termiz (4,4 %), Uzun (4,2 %) va Qumqo'rg'on (3,4 %) tumanlari ulushiga ega.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2022- yil yanvar- may oylarida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan % da



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar


Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-oktabrdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni
yuritish bo'limi
Tel. (76) 225-65-90**